

KUNGABOQARNING TUNLAMLAR OILASIGA MANSUB ZARARKUNANDALARI TUR TARKIBI VA UCHRASH DARAJASI

Muminova Ra'no Dilabayevna, professor

ORCID: 0009-0002-7256-1942

Xoldorova Ozoda Toxirjon qizi, magistr

ORCID: 0009-0005-9835-1902

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Maqolada kungaboqarning tunlamlar oilasiga mansub zararkunanda turlari 6 tani tashkil etishi aniqlangan. Kungaboqarda dominant turlar *Helicoverpa armigera* Hbn., *Agrotis segetum* Den.et Schiff. ekanligi aniqlandi. *Chloridae dipsacea* L. turlar nisbatan ko'proq uchrab, eng kam uchragan turlar *Agrotis exclamationis* L., *Euxoa agricola* B., *Chloridae peltigera* Schiff turlari bo'ldi.

Kalit so'zlar: tunlamlar oilasi, go'za tunlami, kuzgi tunlam, tur tarkib, zarar, iqtisodiy zarar keltirish miqdor mezon.

Аннотация. В статье определено, из подсолнухов к семейству совок относятся 6 видов вредителей. Доминирующими видами у подсолнечника являются *Helicoverpa Armigera* Hbn., *Agrotis segetum* Den.et Schiff. *Chloridae dipsacea* L., а наименее распространены виды *Agrotis exclamationis* L., *Euxoa agricola* B., *Chloridae peltigera* Schiff. Наименее распространенными были виды *Chloridae dipsacea* L., относительно чаще встречались виды *Agrotis exclamationis* L., *Euxoa agricola* B., *Chloridae peltigera* Schiff.

Ключевые слова: семейство совок, хлопковая совка, осенняя совка, видовой состав, ущерб, количественный критерий причинения экономического ущерба.

Abstract. The article defines that 6 species of sunflower pests belong to the family of noctuids. The dominant species of sunflower are *Helicoverpa Armigera* Hbn., *Agrotis segetum* Den.et Schiff. *Chloridae dipsacea* L., and the least common species are *Agrotis exclamationis* L., *Euxoa agricola* B., *Chloridae peltigera* Schiff. The least common species were *Chloridae dipsacea* L., relatively more common species were *Agrotis exclamationis* L., *Euxoa agricola* B., *Chloridae peltigera* Schiff.

Key words: *Agrotis segetum* Den.et, *Helicoverpa Armigera* Hbn, species composition, damage, quantitative criterion for causing economic damage.

Moy inson uchun eng zarur va boshqa hech bir narsa bilan almashib bo'lmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari sarasiga kiradi. O'simlik moyi inson organizmi tomonidan tez hazm bo'ladigan mahsulot bo'lib, uning eng yaxshi xususiyati inson organizmida xolesterin to'plamasligidir.

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri moyli ekinlarni yetishtirib, ulardan yuqori hosil olish va aholining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish uchun moyli ekinlarga zararkunanda va kasalliklari keltiradigan zararni kamaytirishdir. Lekin hozirgi vaqtgacha dunyoning ko'pgina mamlakatlarida jumladan O'zbekistonda ham moyli ekinlarga zarar keltirib yashovchi ko'plab turdagi zararkunanda va kasalliklarni uchratish mumkin. Bular keltiradigan zarari esa bir necha millionlab dollarni tashkil etadi [1,2]. Shuning uchun ham moyli ekinlar hosildorligini oshirishda ularni zararkunanda va kasalliklardan ximoya qilish chora tadbirlariga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Kungaboqarda bir qancha turdagi tangaqanotlilar turkumiga mansub zararli hasharotlar zarar keltirib yashaydi. Birgina kungaboqar o'simligida V.M.Lukomets va boshq.(2008) keltirgan ma'lumotlarga ko'ra esa 77 turdan ortiq zararli hasharotlar uning hosiliga zarar keltirad[3].

Bizga ma'lumki, kungaboqar o'simligida 32 tur, ya'ni Tangaqanotlilar – *Lepidoptera* turkumiga mansub 6 tur, Qattiq qanotlilar – *Coleoptera* turkumiga mansub 12 tur, To'g'ri qanotlilar – *Orthoptera* turkumiga mansub 6 tur, Tengqanotlilar – *Homoptera* turkumiga mansub 4 tur zararkunandalar zarar keltiradi.

Quyida kungaboqar o'simligiga zarar yetkazib yashovchi tunlamlarning sistematik nomlari bilan keltirilgan.

Turkum. Tangaqanotlilar – (*Lepidoptera*).

Oila. Tunlamlar – *Noctuidae*. Tadqiqotlarimiz davomida kungaboqar ekilgan dalalarda tunlamlar oilasi vakillaridan yovvoyi tunlam - *Euxoa conspicua* Hb., kuzgi tunlam – *Agrotis segetum* Den. et Schiff., mavrak tunlami - *Chloridae peltigera* Schiff., g'o'za tunlami – *Heliothis armigera* Hbvabeda tunlami – *Heliothis virespasa* Hufn. uchrashi kuzatildi. Tunlamlar oilasi vakillari kungaboqar o'simligining vegetativ va generativ organlarini zararlaydi. Bular ichida kuzgi tunlam yosh nihollarni nobud qilib zarar keltirsa, g'o'za tunlami o'simlikning hosil organi bo'lgan savatchalaridagi donni (pistalarni) yeb sezilarli zarar etkazadi.

Kungaboqar ekinlarining zararkunandalarini hisobga olish ishlari B.P.Bryansev (1966), Ya.Vayzer (1972); J.D.Ismuxambetov va boshq. (1995) hamda V.M. Lukomets va boshq. (2008) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borildi, rivojlanish dinamikasi bo'yicha kuzatuv tajribalar olib borildi. Toshkent viloyatining Qibray tumani ToshDAU "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahatlar markazi" DUK tajriba maydonlarida 2024 yilda kungaboqar agrobiotsenozda tunlam turlari tur tarkibini aniqlash va sistematik tahlil qilish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tunlamlar kapalaklari turli tutqichlar yordamida feromon tutqichlar, yorug'lik tutqichlar (BUF-30) va achitqilar yordamida 3-5 kun oralatib tunlam kapalaklari tutildi.

Kungaboqar ekinida tunlamlar turlari va ularning uchrash darajasi
(Toshkent viloyati, Qibray tumani ToshDAU "O'quv-ilmiy tajriba xo'jaligi" DUK, 2024 yil)

№	Tunlam turlari	Uchrashi
Turkum <i>Leridoptera</i>, Oila <i>Noctuidae</i>		
1.	Kuzgi tunlam (<i>Agrotis segetum</i> Den.et Schiff)	+++
2.	Undov tunlam (<i>Agrotis exclamationis</i> L.)	++
3.	G'o'za tunlami (<i>Helicoverpa armigera</i> Hbn.)	+++
4.	Yovvoyi tunlam (<i>Euxoa agricola</i> B.)	+
5.	Mingdevona tunlam (<i>Chloridae peltigera</i> Schiff.)	+
6.	Beda tunlami (<i>Chloridae dipsacea</i> L.)	+++

+ kam uchraydi; ++ o'rtacha uchraydi; +++ ko'p uchraydi

Tadqiqot natijalaridan xulosa qilib aytganda Kungaboqarda dominant turlar *Helicoverpa armigera* Hbn., *Agrotis segetum* Den.et Schiff. va *Chloridae dipsacea* L. turlar nisbatan ko'proq uchrab, eng kam uchragan turlar *Agrotis exclamationis* L., *Euxoa agricola* B., *Chloridae peltigera* Schiff turlari bo'ldi. Ammo ushbu dominant turlardan populyasiyasining zichligi bilan *Agrotis*

segetum Den.et (19,2%), *Helicoverpa armigera* Hbn (48,4%) turlari ajralib turdi.

Tunlamlarning populyasiya zichligi katta bo'lgan hamda boshqa ekinlarga nisbatan ko'p zarar yetkazuvchi ekinlardan biri pomidor hisoblanib, bu bo'yicha tunlamlarning uchrash darajasi yillar bo'yicha kuzatildi.

ADABIYOTLAR:

1. Лукомец В.М., Пивен В.Т., Тишков Н.Н., Шуляк И.И. «Вредители подсолнечника». // Защита и карантин растений. 2008, №2. С. 87-89.
2. Sagdullaev A.U., Dusmonov S. Moyli ekinlarning zararkunanda va kasalliklariga qarshi kurash chora tadbirlari yuzasidan tavsiyanoma. Toshkent, «Talqin», 2008.
3. Шеролев В.Н. Вредители подсолнечника. "Сельскохозяйственная энтомология". Москва – 196. С. 235 – 238.